




2022 yil yanvar - fevral  
oylarida  
Sirdaryo viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va hilma-hilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar - fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **748,4 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **135,2 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,1 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - fevral oylarida)

**748,4 mlrd.  
so'm**

**116,1 %**

**135,2 mlrd.  
so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

**2022- yil yanvar- fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - fevral oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>748,4</b>	<b>116,1</b>
<b>shu jumladan:</b>		
<b>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari</b>	<b>44,1</b>	<b>120,7</b>
<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	<b>255,6</b>	<b>139,4</b>
<b>Transport xizmatlari</b>	<b>99,5</b>	<b>106,3</b>
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>94,3</b>	<b>105,8</b>
<b>Yashash va ovqatlanish xizmatlari</b>	<b>17,2</b>	<b>102,5</b>
<b>Savdo xizmatlari</b>	<b>200,5</b>	<b>107,7</b>
<b>Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar</b>	<b>18,4</b>	<b>107,6</b>
<b>Ta'lim sohasidagi xizmatlar</b>	<b>22,9</b>	<b>97,8</b>
<b>Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar</b>	<b>14,7</b>	<b>109,5</b>
<b>Ijara xizmatlari</b>	<b>15,5</b>	<b>60,5</b>
<b>Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar</b>	<b>17,2</b>	<b>108,2</b>
<b>Shaxsiy xizmatlar</b>	<b>14,9</b>	<b>109,1</b>
<b>Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar</b>	<b>6,0</b>	<b>107,1</b>
<b>Boshqa xizmatlar</b>	<b>22,0</b>	<b>131,8</b>

2022- yil yanvar - fevral


Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

#### Nisbatan past ko'rsatkich



#### Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2022- yilning yanvar - fevral oylarida ularning ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (26,8 %), transport xizmatlari (13,3 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,9 %) qayd etildi.

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,8 %** ga yetdi

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **27,5 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoque.


2022- yilning yanvar - fevral oylarida yuqori o'sish savdo xizmatlarida (26,8 %), transport xizmatlarida (13,3 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 125,7 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda pasayish kuzatilgan – 101,7 %.

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da  
(2022- yil yanvar - fevral)**



2022- yilning yanvar - fevral oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Xovos (109,1 %), Sayxunobod (107,5 %) shuningdek, Mirzaobod tumanida (107,2 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Boyovut (96,9 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (29,4 %) va Yangiyer (16,3 %) shaharlariha hamda Sirdaryo (17,3 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,4 %).

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **27,5 %** ni tashkil etib, bu esa **200,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - fevral oylarida ularning hajmi 168,9 mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **27,5 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

168,9

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

200,5

100,7

O'sish sur'ati, % da

107,7

2021- y. yanvar- fevral




2022 y. yanvar - fevral

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **66,7 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi  
(2022- yil yanvar - fevral oylarida)**




**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **67,0 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2022- yilning yanvar - fevral oyida)**



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Boyovut (**80,8 %**) va Sardoba tumanlarida(**82,4 %**), Yangiyer shahrida (**79,4%**), Oqoltin (**78,6 %**) tumanlarida kuzatilmogda.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida chakana savdo ulushi Sardoba tumanlarida maksimal darajaga yetgan – **83,0 %**.



Shirin shahrida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakna savdo ulishi **28,5 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu shaharda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **69,8 %**.

Sardoba – **6,1 %** va Oqoltin – **6,0 %** tumanlari esa nisbatan kichik ulushga ega.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar – fevral oylarida Shirin shahrida ulgurji savdo ulishi **69,8 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**14,7 %**), Xovos (**11,0 %**) Sardoba (**11,0 %**), Guliston (**10,0 %**) tumanlarida qayd etildi.



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **14,7 %**.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar - fevral oylarida)**

2022- yil yanvar - fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **255,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar - fevral oylarida ularning hajmi **138,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar – fevral oylarida ularning ulushi **29,9 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **72,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **138,6%** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar – fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **125,7 %** ni tashkil etgan.

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,7 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,2 %** ini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,1 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2022- yil yanvar – fevral oylarida)**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar - fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **95,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,8 %**.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


(2022- yilning yanvar - fevral oylarida)

O'sish sur'ati

2022 - yilning yanvar - fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **44,1** mlrd. so'm darajasida belgi-landi.

2021- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **120,7 %** ni tashkil etgan.

### Hajmning o'sishi



### Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - fevral oylarida ushbu xizmat turi hajmi **36,4** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmining **5,9 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **117,2 %** ni tashkil etgan.


2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2022- yilning yanvar – fevral oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **22,9 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **3,1 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar – fevral oylarida nisbatan o'sish sur'ati **97,8 %** ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar - fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2022- yilning yanvar - fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (**2,1** mlrd. so'm), Boyovut (**1,0** mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (**15,4** mlrd. so'm) va Yangiyer (**1,5** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

### **Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar – fevral oylarida)**



#### **Taqqoslash uchun:**

2021- yilning yanvar – fevral oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 15,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yil yanvar – fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

17,2 mlrd.  
so'm

13,9 mlrd.  
so'm

Xizmatlar hajmi

2021- y.  
yanvar - fevral

2022- y.  
Yanvar - fevral

102,5 %

101,9 %



O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **3,3 mlrd. so'mga** ortgan.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2022- y. yanvar - fevral



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



2021- y. yanvar- fevral



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **102,5 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar - fevral oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **101,9 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyat xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.  
yanvar - fevral

14,7  
mlrd. so'm

2,0 %

109,5 %



2021- y.  
Yanvar – fevral

Xizmatlar  
hajmi


Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi

O'sish  
sur'ati

12,5  
mlrd. so'm

2,0 %

103,8 %



**2022- yil yanvar – fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar - fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>748,4</b>	<b>116,1</b>	<b>111,4</b>
<i>shaharlari:</i>			
Guliston	349,5	120,6	118,2
Shirin	18,1	112,1	103,5
Yangiyer	58,1	116,1	104,6
<i>tumanlari:</i>			
Boyovut	42,2	108,9	94,5
Guliston	29,5	114,6	105,2
Mirzaobod	33,5	113,7	105,1
Oqoltin	21,7	115,7	102,9
Sardoba	27,0	114,9	97,2
Sayxunobod	34,0	112,9	97,3
Sirdaryo	99,7	108,1	105,1
Xovos	35,1	116,3	102,8


2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar – fevral oylarida)**



2022- yil yanvar - fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **46,7 %** (2021- yilning yanvar - fevral oylarida – **59,8 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **2,4 %** (2021- yilning yanvar - fevral oylarida – **3,0 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

860,5  
ming so'm



#### Hajmnning o'sishi

142,1  
ming so'mga

#### O'sish sur'ati

113,9 %

2022- yilning yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 860,5 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,9 %** ni tashkil etdi.

#### Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 718,4 ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % da qayd etilgan.

2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



**2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi**

**Ularning umumiyligi**

20221- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar

**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,2 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,3 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0%** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar - fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



52,8 %

2022- yil yanvar - fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **52,8 %** ni tashkil etdi.

### 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **79,5 %** ga to'g'ri keldi.

1- mart holatiga

2022- y.

2021- y.

79,5 %

79,6 %